

ABU NASR FAROBIYNING FALSAFA ILMIGA OID QARASHLARI

Muyitova Kamola Homidovna

Osiyo Xalqaro Universiteti,

Pedagogika Psixologiya yo'nalishi,

1-bosqish magistranti

Annotatsiya: ushbu maqola Abu Nasr Forobiyning hayot yo'li, uning chuqur falsafiy kuzatishlari asosida yaratilgan asarlaridagi pedagogika va psixologiya fanlariga oid bo'lgan fikr va g'oyalar haqida ma'lumot beradi. Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, sharq Arastusi, komillik, dunyoviy ilm, "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil odamlar shahri", odob-axloq, inson, jamiyat.

Kalit So'zlar: ma'naviy komillik, axloqshunoslik, musiqashunoslik, kasb-hunarga intilishi, axloqiy tarbiyasida.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' ibn Tarxon Forobiy (873-950 yy., O'tror shahri) islom ilmlari g'oyatda rivojlangan, kuch-qudratga to'lgan, butun musulmon olamida, xususan, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Bag'dodda qator ilmiy markazlar vujudga kelgan bir ajoyib davrda yashab ijod qildi. O'sha vaqtlari Qur'on ilmlari, ayniqsa, tafsir g'oyat taraqqiy etgan, hadis ilmi misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, o'zining yuksak cho'qqisiga yetgan hamda to'rtta fihiy mazhab yuzaga kelib, musulmon xalqlari orasida mustahkam islom qonunshunosligi vujudga kelgan edi.

Abu Nasr Forobiy yunonlarning ilmini, xususan, Arastuning falsafiy merosini chuqur o'rganib chiqib, islom olamida ilohiy hikmatlar manbai bo'lgan Qur'on va hadislarga asoslangan falsafa ilmiga asos soldi. Shu sababli "Islom ulamolari orasidagi ilk faylasuf", "Muallimus soniy" va "Sharq Arastusi" nomlari bilan G'arbu Sharqda shuhrat qozondi. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq asar va risolalar yozdi. Allomaning kitoblari, xususan, "Fozil odamlar shahri" deb nomlangan asari Sharq ma'naviyatida yangi sahifa ochib berdi. Bu asar asrlar osha hanuzgacha bashariyatni baxt-saodat va ma'naviy komillik sari yetaklovchi muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shu bois yurtimizda Abu Nasr Forobiy ilmiy-ma'naviy merosining gultoji bo'lgan bu asarni o'rganib, ilmiy tadqiq etish va keng ommaga yetkazishga keng e'tibor berilmoqda.

Alloma mazkur asarida axloqshunoslik, musiqashunoslik, davlat boshqaruvi, falsafa va mantiq ilmi masalalari bilan birga, ta'limni rivojlantirish borasida o'zining aniq va asosli nazariy qarashlarini olg'a suradi. Jumladan, insonni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda muhim o'rin tutuvchi vositalarni, bunda jamiyat va ta'lim-tarbiyaning o'rni haqidagi fikr va qarashlarini o'rtaga tashlaydi. Shuningdek, alloma odamzotning insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilgan holda shakllanib, kamolga

yetishini va bunda jamiyatning alohida o'zni borligini ta'kidlaydi: "Inson tug'ilganda kamolotli bo'lib tavallud topmaydi, odamlar orasida o'sha vaqti farq ham bo'lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o'xshash bo'ladi, faqat keyinchalik o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda odamlar ming yillardan buyon amal qilib kelayotgan qadriyat va me'yorlarni qabul qiladi. Ularga moslashadi, tevaragidagi voqealar va muhit ta'sirida yaxshi yoki yomon odatlarni o'rganadi. Shu bois odamlardagi xato va kamchilik, yutuq va muvaffaqiyatlar ularda jamiyat rivojiga qarab keyinchalik shakllanadi. Inson jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni o'ziga singdira boshlaydi va bu jarayonda har xil mushkulotlarga duch keladi".

"Inson faoliyatining adolatga yaqin yo uzoqligi uning aql-zakovati, xulqi, yashayotgan jamiyatiga bog'liqdir. Unda yomonlik haqidagi fikrlar ozroq bo'lsa, adolatga yaqin bo'ladi, ko'proq bo'lsa, adolatdan, insofdan uzoqroq bo'ladi. Xulq, albatta, insondagi yaxshi yoki yomon xislatlarning nisbatiga bog'liqdir", deb, shakllanib kelayotgan yosh avlod ongidan yomon illatlarni chiqarib tashlab, ularning o'rnini yaxshi xislatlar bilan to'ldirish zarurligini uqtiradi.

Forobiy yoshlarda ta'lim-tarbiya ta'sirida ijobiy xislatlar va insoniy fazilatlarining shakllanishi haqida so'z yuritib: "Har bir inson boshdan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuur ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu jahd bilan intiladi", deydi va bu jarayonda ularga o'zlari qiziqqan kasb-hunarni o'rgatish lozimligini, agar o'zlarida biror kasbga intilish yo istak bo'lmasa, majburiy tarzda ta'lim berish kerakligini aytadi. Ya'ni, ta'lim-tarbiya borasida ikki yo'l: ixtiyoriylik va majburiylikni qo'llash to'g'risida o'z tavsiyalarini ilgari suradi.

Ixtiyoriy holatda ta'lim-tarbiya berishda "qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malaka vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi", deb intiluvchan talabani uning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish uchun ilm va hunar tomon yetaklash va bunda bor imkoniyatlardan foydalanish zarurligini uqtiradi.

Nazariy va amaliy bilimlarga intilmaydigan, hayotda biror maqsadga ega bo'lmagan yoshlarni kinoyali tarzda "...gapga kirmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlar. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emas. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir", deya bayon qilib, ularga majburiy ta'lim-tarbiya berish usulini qo'llash kerakligini, bu jarayonda talabani qanday kasb-hunarga salohiyati yetarli ekanini aniqlash va salohiyati yetmagan narsaga majburlamaslik zarurligini aytadi[3]. Jumladan, tarbiya haqida alohida fikr bildirib: "Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo'lmasa, u bema'nilikni xush ko'radi", deydi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiya berishda yoshlar nimalarga qiziqishi, ularning qanday kasb-hunarga intilishi bilan hisoblashish va intilishi bo'lmagan yoshlarni muayyan bir kasbga yo'naltirish metodikasini bundan o'n asr oldin ilgari surgan. Alloma orzu qilgan va o'z asarida bayon etgan bu ta'lim tizimi bugungi kunda bizning diyorimizda to'laligicha o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Hozir yetishib kelayotgan yosh avlod uchun majburiy o'rta ta'lim va to'garaklar, keyin esa muayyan kasbga yo'naltirilgan uch yillik ixtiyoriy-majburiy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgani Forobiy g'oyalarining hayotda o'z isbotini topganiga yorqin dalildir.

Biz "Fozil odamlar shahri" asaridan faqat allomaning ta'limga oid qarashlari haqida so'z yuritdik. Albatta, bu kitobning hikmatlari bisyor. Buni mazkur asar zamonlar osha o'zining qiymati va dolzarbligini yo'qotmay kelayotganidan ham anglab yetish mumkin. Allomaning bu kitobi qanchalik ko'p mutolaa qilinsa, o'zidagi sir va hikmatlarni shunchalik ko'p namoyon qilaverishi shubhasizdir. Jumladan, bu asar yoshlarimizning axloqiy tarbiyasida, ayniqsa, o'zligini anglashida ular tayanadigan bebaho manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Хдйитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. -Т.,УзФА, 1963. Б.143
2. Узбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2 том. -Т.,Фан,1977.- Б.109
3. Четиндог Ю. Алишер Навоий (А.Хдйит таржимаси). - Тошкент: "Мухдррир", 2013. Б.: 32
4. Hasanov N. Navoiy ijodiyotining Turkiyada o'rganilishiga doir \ Navoiyning ijod olami (2-kitob). - Toshkent: "Fan", 2011.
5. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1976.
6. Nagiyeva J. Ozarbayjon adabiyotida Navoiy an'analari \ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari (Maqolalar to'plami). - Toshkent: "Fan", 1993. 8-fevral 318
7. Rasul X. Muhammad Fuzuliy\Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. 1-jild.- Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nash riyoti, 1968.